

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823940>

## O‘Q OTISH VA UNI O‘QITISH USLUBIYOTI FANINI OLIB BORISHDA PSIXOLOGIK KUZATUV TADBIRLARINI TASHKILLASHTIRISH VA O‘TKAZISH

**Xikmatov Anvar Izatullayevich**

Buxoro Davlat pedagogika instituti  
harbiy ta’lim fakulteti maxsus tayyorgarlik  
sikli dotsenti, podpolkovnik

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “O‘q otish va uni o‘qitish uslubiyoti fani mashg‘ulotlarida psixologik kuzatuv tadbirlarini tashkillashtirish va o‘tkazish” mavzusida ilmiy izlanish olib borilgan. Ushbu ilmiy izlanish doirasida jangovar vaziyatning harbiy xizmatchilarga ta’siri o‘rganilgan. Bundan tashqari, taktik bo‘g‘indagi bo‘linmalarning keskin vaziyatlarda o‘q otar qurollarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** Taktik o‘q otish, yaqin janglar, o‘q otar qurollar, keskin vaziyatlar, ahloqiy-ruhiy tayyorgarlik, jangovar immunitet.

**Annotation:** Following article represents a scientific study which was carried out on the basis of the topic “Organization of psychological observation activities in practical shooting session”. Within the framework of this scientific research the influence of the combat cases on military personnel was studied. In addition, research is being carried out on the peculiarities of firearms use in acute situations of units in the tactical link.

**Key words:** Tactical shooting, close combat, firearms, tense situations, moral and spiritual training, combat immunity.

**Аннотация:** В данной статье проведено научное исследование на тему “Организация и проведения психологических наблюдательных мероприятий по пулевой стрельбе”. В рамках данного научного исследования изучалось влияние боевой обстановки на военнослужащих. Кроме того, ведутся исследования особенностей применения огнестрельного оружия в сложных ситуациях подразделениями тактического звена.

**Ключевые слова:** Takticheskaya stryelba, blizhniy boy, ognestrelnoye oruzhie, napryazhennye situatsii, moralno-duhovnaya podgotovka, boevoy immunitet.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni kuchaytirish, davlatimiz chegaralari daxlsizligi va jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquqi va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning farovon hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida jadal islohotlar olib borilishi davrida harbiy kadrlarning professionallik darajasini oshirishni etarli darajadagi jangovar shaylikni saqlashni eng zarur shartlaridan biri deb hisoblaydi. Qurolli Kuchlar o‘quv yurti ofitseri, chaqiriqqacha harbiy ta‘lim o‘qituvchisi kabi shaxslar, o‘quv tarbiya jarayonida asosiy shaxs hisoblanadi, ular amaliyotda asosiy didaktik prinsiplar, ta‘lim berish va tarbiyalashning shakl va usullarini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Mudofaa vazirligi ofitserlar tarkibining psixologik – pedagogik tayyorgarligiga quyidagi talablarni qo‘yadi:

- uzviy komponentni birligi, ishga tashabbuskorlik bilan va ijodiy yondashish;
- ijtimoiy - siyosiy, tarbiyaviy jihatlarni hisobga olishni bilish;
- insonlarga turmushda namuna bo‘lish, ularning talab va ehtiyojlarini bilish;
- sabot bilan qo‘shinlarni boshqarish san‘atini egallash, oqilona tashabbuskorlik ko‘rsatish, ilmiy-nazariy saviyasini oshirish, jangovar va siyosiy tayyorgarlikni, qo‘shinlar jangovar shayligini va harbiy intizomni yuksaltirishda o‘z hissasini qo‘shish;

- bevosita o‘quv poligonlarida doimiy ravishda o‘rganish va boshqalarga o‘rgatish, zamonaviy jangovar texnika va qurollarni sabot bilan egallash;

- bo‘ysunuvchilar bilan sidqidildan ishlash, ularni o‘rgatish va tarbiyalash hamda otalaracha g‘amxo‘rlik ko‘rsatish;

- harbiy mojarolar hamda qurolli to‘qnashuvlar tajribalarini o‘rganib chiqish va o‘z amaliy faoliyatida uni ijodiy qo‘llashga intilish. Ushbu talablarni bajarish har bir harbiy xizmatchidan bilim, saviya va kuchli ruhiy tayyorgarlikni talab etadi.

Hozirgi kunga kelib mintaqamizda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko‘payib borishini kuzatishimiz mumkin. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat jangovar tayyorgarlik yo‘nalishidagi mavjud muammolarni tanqidiy baholab, uni zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Harbiy psixologiya va pedagogika – psixologiyaning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, harbiy xizmatchilarning individual va ommaviy ravishda jangovar harakatlarga

tayyorgarlik ko'rish va olib borish jarayonida sodir bo'ladigan psixologik muammolarni o'rganuvchi fan hisoblanadi.

Harbiy psixologiya va pedagogika – fan sifatida XX asr boshlarida qurolli kuchlar shaxsiy tarkibini tanlash, o'qitish va lavozimlarga tayinlash uchun ommaviy tadqiqotlar olib borish natijasida paydo bo'ldi.

Jangovar vaziyat insonni stress holatiga ta'sirini o'rganishda alohida o'rin tutadi.

Harbiy xizmatchilarning jangovar harakatlar olib borishda ishtiroki asosan uchta muhim sabablarga bo'linadi:

keng ijtimoiy sabablar (vatanga muhabbat, dushmanga bo'lgan nafrat, harbiy burchga sadoqat);

jamoaviy–guruhiy sabablar (jangovar o'rtoqlik, bir-birini qo'llash, guruhning nafratiga uchrash);

yakka-shaxs sifatida sabablar (ajralib turishga intilish, mukofotga sazovor bo'lish, o'z imkoniyatlarini sinab ko'rish, moddiy manfaat ko'rish).

Askarlardagi qo'rquv, vahima va sarosimalar ularni qurolni samarali qo'llashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Jangda askarni noma'lumlik qo'rqitadi. Askar jangda ustalik bilan mohirona jang qila olmasligining sabablaridan biri, u mashg'ulotlarda harakatlarini mexanik tarzda yodlab olgan (rolni yomon o'ynaydigan aktyor kabi) va vaziyatdan kelib chiqib shaxsiy tashabbuskorlik ko'rsatish va yuzaga kelgan kutilmagan vaziyatlar, falokatli onlarda to'g'ri qaror qabul qilish lozimligini unutgan bo'lishi mumkin.

Mashg'ulotlar davomida nishongacha bo'lgan masofani aniqlashda harbiy xizmatchilar 5 foiz xatoga yo'l qo'ysa (400 metr masofada 20 metrga teng), jangovar vaziyatlarda 10-20 foiz yetadi (400 metr masofada 80 metrga teng).

Rus-yapon urushi davrida har bir o'ldirilgan askarga o'rtacha 25-50 tagacha o'q sarflangan bo'lsa, Birinchi jahon urushida o'q otish samaradorligi 3-5 foizni tashkil etgan. Ikkinchi jahon urushida esa har bir o'ldirilgan askar uchun o'rtacha 10 dona o'q sarflangan bo'lsa, XX asrning mahalliy urushlarida 50 taga yetdi. V'etnam urushida esa AQSH askarlari tomonidan 200-400 o'q sarflashga majbur bo'lgan. Buning asosiy sababi o'q otishga tayyorgarlikning past darajada ekanligi emas balki, harbiy xizmatchilardagi qo'rquv va jangovar vaziyatni to'liq idrok etmasligidadir.

AQSHlik mutaxassislarining xulosasiga ko'ra 90 foiz harbiy xizmatchilar jangda aniq ko'rinishga ega bo'lgan qo'rquvni his etadilar. Ularning 25 foizida qo'rquv, ko'ngil aynishi, qayt qilish, va boshqa holatlar kuzatiladi. Taxminan 30 foiz harbiy xizmatchilar jangdan oldin, 35 foizi jang davomida va 16 foizi jangdan so'ng qo'rquvni his etadi. Harbiy xizmatchilarning faqat 20-25 foizi jangda zarur bo'lgan faollikni

mustaqil tarzda bajaradilar (aniq mo'ljalga olib o'q uzish, jang maydonida manyovr qilish va h.k.).

Nemis olimi Ye.Dinter ta'kidlashicha harbiy xizmatchilarning jangovar harakatlarga moslashishi jarayoni taxminan 15-25 kun davom etadi va shundan so'ng ruhiy-psixologik imkoniyatlarning eng cho'qqisiga chiqadi. Dushman bilan bevosita to'qnashuvlarning 30-40 kunida ruhiy va jismoniy kuchlarda charchash belgilari kuzatiladi.

Agar jangning 45 kundan so'ng jangchi front ortiga yuborilmasa u o'zining psixofiziologik imkoniyatlariga ko'ra jangovar imkoniyatlarini yo'qotadi. Jangovar harakatlarda uzluksiz ishtirok etuvchi 98 foiz harbiy xizmatchilarda 35 kundan so'ng ruhiy tartibsizlik sodir bo'ladi.

Bundan tashqari, shaxsiy tarkibning psixologik holatiga ularning jang davomidagi hayoti va faoliyati (uyqu, ovqatlanish, ob-havo sharoiti, notanish bo'lgan joy) salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi jahon urushi davrida AQSH harbiy xizmatchilarining bir qismida ruhiy tartibsizlik sababli safdan chiqish holati kuzatilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1950-1953 yillarda Koreyada, 1965-1973 yillarda V'etnamda, 2003-2011 yillarda Iroqda, 2001-2021 yillarda Afg'onistonda ancha katta miqdorga yetdi. Ayniqsa tungi yoki ko'rinishi cheklangan sharoitlarda bunday yo'qotishlar ikki barobar ko'payishga olib keldi.

Jangovar harakatlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, jismoniy va ruhiy tayyorgarlikka ega bo'lgan harbiy xizmatchilar jang davomida o'zlarini a'lo darajada his etib, jangovar vazifani muvaffaqiyatli bajarishga hissa qo'shmoqdalar.

Bu borada Bobokalonimiz buyuk sarkarda Amir Temur bundan 600 yil oldin o'zining «Temur tuzuklari» da shunday misralar qoldirgan, -“Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, jang ko'rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”.

Yuqoridagilardan xulosa qilib ko'plab davlatlar armiyalarida harbiy xizmatchilarning tayyorgarligini jangovar harakatlarga yaqinlashtirilgan vaziyatlarda mashg'ulotlarni tashkillashtirish va olib borish yo'lga qo'yildi.

Jangovar harakatlarga xos bo'lgan hodisalar o'z ichiga quyidagilarni olishi mumkin:

O'q uchishi, turli snaryad va minalarni portlashi, yarador bo'lish, sherigi tanasining o'q tegib yoki portlash natijasida yarador yoki parchalanib halok bo'lishi, tinch aholi vakillari bo'lgan yosh bolalar, qariyalar yoki ayollarning parchalanib halok bo'lishi va ularning jasdlari, jangovar texnikalarning ishdan chiqishi yoki butunlay yakson etilishi, binolar va uylarning vayron bo'lishi, o'q-dori va snaryadlar va boshqa vositalar tutunlari, kuchli shovqin, tuproq yoki qum uyumining bosib qolishi, yong'in

chiqishi, turli darajadagi kuyish jarohatini olish, ko'p qon yo'qotish, o'q-dori va snaryadlar tugab qolishi, uzoq vaqt qor uyumi yoki nam, loy yerda qolish, sog'ligining yomonlashishi (tana harorati ko'tarilishi, bosh, bel, bo'yin, oyoq va ichki organlaridagi og'riqlar), ochlik yoki tashnalik va hokazolar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, jangning dahshatli manzaralari insonning ko'rish, eshitish, tam va hid bilish hamda teri sezgisi orqali ta'sir etadi. Albatta tinchlik davrida bunday urushning dahshatli manzaralarini 100 foiz yaratish mushkul, lekin ulardan ayrimlarini o'q otish mashqlarini olib borish davomida yaratish va harbiy xizmatchilarimizda jangovar immunitetni shakllantirish va mustahkamlash maqsadida qo'llash mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. А.Г. Караяни, *Американская военная психология как область специальной практики*// А.Г. Караяни, Ю.М. Караяни, Ю.П. Зинченко// *National psychological journal* [Режим доступа] [http:// www.psy.msu.ru/ science/npj/](http://www.psy.msu.ru/science/npj/) - дата обращения 26.04.2022 г.

2. [Режим доступа] [https:// studme.org/ 235174/ psihologiya/ obraz\\_psihologicheskij\\_resurs\\_uchastnika\\_boevyh\\_deystviy](https://studme.org/235174/psihologiya/obraz_psihologicheskij_resurs_uchastnika_boevyh_deystviy) – дата обращения 26.04.2022 г.

3. К.Макнаб, *Психологическая подготовка подразделений специального назначения*.// М.: 2015 - С. 142-148.

4. А.В.Маркин, *Основы тактической подготовки современного солдата*.// М.: 2013 - С. 156-197.

5. Владимир Фурман, адвокат Legal House [Режим доступа] [tps://jurliga.ligazakon.net/ru/news/210201\\_boevoy-immunitet-obzor-izmeneniy-v-zakonodatelstvo](https://jurliga.ligazakon.net/ru/news/210201_boevoy-immunitet-obzor-izmeneniy-v-zakonodatelstvo) -дата обращения 26.04.2022 г.

6. Д. Болелли, *Иммунитет боевого страха // Боевые искусства как способ проживания жизни и построения характера*.// Д.Болелли. М.: - 2109, 246 с.

7. А.И.Хикматов, «О'q otish va uni o'qitish uslubiyoti» darslik 2023 yil.

8. Э.Ш.Ниязов ва А.И.Хикматов, «Ўқ отиши ва уни ўқитиши методикаси» ўқув қўлланма 2022 йил.

9. L.L.Nurillayev, «Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari» darslik 2023 yil.

10. F.B.Rahimov, «Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari» darslik 2021 yil.